

Jizzax viloyatidida Asosiy kapitalga investitsiyalar


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar
- II. Jizzax viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
- III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar
- IV. Jizzax viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

2025- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra viloyat bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 11 670,9 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



So'nggi besh yillikning tegishli davrlari tahlil qilinganda, o'sish sur'atlari o'sib borish tendensiyasiga ega bo'ldi va eng yuqori o'sish sur'ati 2024-yilda (139,3%) kuzatildi, joriy davrda esa ushbu ko'rsatkich 105,5 % ni tashkil qildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(choraklik\)](#)

[Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishga 2025-yil yanvar-iyun oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 11 670,9 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga o'sdi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati %da	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2024-y.	2025-y.
Jami	11 670,9	105,5,	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	1 032,8	126,1	7,5	8,8
respublika budjeti	501,6	81,7	4,9	4,3
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	15,7	17,5	0,8	0,1
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	-	-	-	-
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	-	-	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	515,4	277,9	1,7	4,4
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	40,2	-	x	x
markazlashmagan investitsiyalar:	10 638,1	103,8	92,5	91,2
korxona mablag'lari	1 442,4	125,3	8,9	12,4
aholi mablag'lari	675,7	125,8	4,7	5,8
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	8 428,8	99,3	77,1	72,2
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	654,2		X	x
shundan:				
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	5 458,9	99,3	46,6	46,8
shu jumladan, mln.AQSh dollarida	423,5		x	x
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	91,2	127,6	1,8	0,8

Hisobot davrida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1 032,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 126,1 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 8,8 % ga yetdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Respublika budjeti hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)


[Korxonaning o'z mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi \(yillik\)](#)

Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

		shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan % da)						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilot	Aholi	Xorijiy investitsiya va kredit	Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
Jami investitsiyalar, mlrd so'm								
Jizzax viloyati	11 670,9	4,3	12,4	5,8	76,6	0,1	-	0,8
Jizzax shahri	1 949,6	10,8	15,5	4,3	68,8	0,0	-	0,6
Arnasoy tumani	857,5	0,2	3,9	1,9	93,9	0,0	-	0,1
Baxmal tumani	135,1	14,9	9,5	67,3	0,3	8,0	-	0,0
Gallaorol tumani	1 540,1	0,9	39,5	5,6	53,9	0,0	-	0,1
Sharof Rashidov tumani	1 448,5	3,0	3,8	4,7	88	0,1	-	0,4
Do'stlik tumani	275,3	2,2	5,1	17,6	75	0,0	-	0,1
Zomin tumani	268,4	29,5	29,9	28,6	6	1,3	-	4,7
Zarbdor tumani	247,2	41,1	4,3	17,8	35,3	0,0	-	1,5
Mirzacho'l tumani	667,4	0,8	37,0	5,9	50,6	0,0	-	5,7
Zafarobod tumani	369,3	1,8	6,0	6,5	85,7	0,0	-	0,0
Paxtakor tumani	395,9	1,8	10,2	8,8	75,1	0,0	-	4,1
Forish tumani	3 134,5	0,2	0,3	1,6	97,9	0,0	-	0,0
Yangiobod tumani	382,1	0,2	1,8	3,5	94,5	0,0	-	0,0



II. Jizzax viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 379,7 mlrd so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 29,0 % i o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, %da	
		2024- y.	2025- y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	11 670,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 137,7	13,6	18,3
tog'-kon sanoati	430,4	5,6	3,7
ishlab chiqarish sanoati	3 379,7	48,7	29,0
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	3 060,6	15,5	26,2
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	154,4	0,9	1,3
Qurilish	706,1	1,7	6,1
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	127,7	0,7	0,1
tashish va saqlash	238,1	0,1	2,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	33,2	2,3	0,3
axborot va aloqa	20,9	0,4	0,2
moliya va sug'urta faoliyati	37,1	0,1	0,3
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	149,2	0,3	1,3
ta'lim	80,6	1,0	0,7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	60,9	1,2	0,5
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	10,6	0,3	0,1
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	727,3	3,0	6,2
boshqa faoliyat turlari	316,4	4,6	3,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)


III. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyat miqyosida asosiy kapitalga 8 944,3 mlrd so'mlik xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
Jizzax viloyati	5 458,9	515,5	2 969,9
Jizzax shahri	749,4	27,8	563,8
Arnasoy	483,5	321,1	-
Baxmal	-	0,6	-
Gallaorol	45,1	163,7	621,6
Sharof Rashidov	1 005,5	-	269,5
Do'stlik	141,8	-	64,3
Zomin	15,3	2,1	-
Zarbdor	22,9	-	64,5
Mirzacho'l	-	-	337,3
Zafarobod	132,1	-	184,4
Paxtakor	84,6	-	212,7
Forish	2 456,4	-	613,0
Yangiobod	322,3	0,2	38,8

Jizzax viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(yillik\)](#)

[Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi \(choraklik\)](#)

IV. Jizzax viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

2025-yil yanvar-iyun oylarida jami 358,2 ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, o'sish sur'ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 133,4 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida viloyat bo'yicha jami 30,2 km suv tarmog'i ishga tushirildi, ularning 38,7 % i yoki 11,7 km qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, joriy davrda 4,4 km gaz tarmog'i ishga tushirilib, ulardan 1,2 km qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylarda ming kv.m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
Jizzax viloyati	358,2	157,6	30,2	4,4
Jizzax shahri	60,1	-	-	-
Arnasoy	9,2	4,9	2,1	0,5
Baxmal	45,4	26,2	5,3	0,5
Gallaorol	43,3	25,4	7,8	0,6
Sharof Rashidov	38,7	27,8	0,0	0,0
Do'stlik	33,2	20,6	1,3	0,5
Zomin	42,3	12,3	0,0	0,0
Zarbdor	24,7	10,8	2,6	0,6
Mirzacho'l	10,6	5,2	1,0	0,5
Zafarobod	12,3	3,5	4,0	0,0
Paxtakor	21,4	12,7	0,0	0,0
Forish	13,9	7,7	6,1	0,3
Yangiobod	3,1	0,5	0,0	0,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ishga tushirilgan uy-joylarning umumiy maydoni \(yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan suv tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

[Ishga tushirilgan gaz tarmoqlari uzunligi \(jami, yillik\)](#)

V. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 % dan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqi ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yangi va import orqali xarid qilingan asosiy vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga: ularning boshlang'ich qiymatini oshirishga olib keladigan yangi qurilish, kengaytirish, obyektlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ketgan xarajatlar, mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, yer holatini yaxshilash uchun xarajatlar, geologik qidiruv ishlariga, asosiy podani shakllantirishga va ko'p yillik o'simliklarni o'tkazishga ketgan xarajatlar kiradi.

Mazkur ko'rsatkichga shuningdek moliyalashtirishining barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hamda texnik va hayriya yordam, "MEN" shartnomalari, ta'sisчилarning yangi asosiy vosita sifatidagi badallari, shuningdek intellektual mulkchilik obyektlariga va intellektual faoliyat mahsulotlariga investitsiyalar kiritiladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1865/Asosiy-kapitalga-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1872/Iqtisodiy-faoliyat-turlari-boyicha-asosiy-kapitalga-ozlashtirilgan-investitsiyalar.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1867/Asosiy-kapitalga-xorijiy-investitsiya-va-kreditlar.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:	Ijrochi:	Manzil:
Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi	F.Zakirova 72 221-51-02 (2520)	